

Hozirgi o'zbek adabiyotida esse janrining taraqqiyoti, Ozod Sharafiddinov mavzusida

Nasriddinova Gulbahor O'ktam qizi

Adabiyotshunoslik: O'zbek adabiyoti magistranti

Guliston davlat universiteti

Annotatsiya: Zamonaviy o'zbek adabiyotini **Ozod Sharafiddinov** ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkanishlarni amalga oshirdi. Vatan tuyg'usining sehrli qudrati bilan o'z xalqining e'tibori va e'zozini qozondi. Zamonaviy o'zbek adabiyotini Ozod Sharafiddinov ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmi hamda XXI asr boshlari Said Ahmad ijodining sermahsul davrlari hisoblanadi. Jumladan uning trilogiyasi – "Ufq" umum e'tirofga ko'ra badiiy – estetik saviyasi juda yuqori deya tan olingan romanlar. [1]. Taniqli o'zbek adabiyotshunoslarining deyarli barchasi yozuvchi ijodi haqiga u yoki bu darajada murojaat qilishgan. **Ka'lit so'zlar:** Zamonaviy, adabiyot, hikoya, badiiy tahlil.

Ka'lit so'zlar: Zamonaviy, adabiyot, hikoya, badiiy tahlil.

Vatan bizning hayotimizdagi eng katta qadriyat. Har bir farzand ulg'aygan makonini rivoji va ravnaqi uchun kichik bo'lsada hissa qo'shishi, yorqin kelajagi uchun mas'uliyat hissini tuymog'i lozim. Zero, Ona bittadir Vatan yagona. Ozod Sharafiddinov jannatmakon yurtimizning haqiqiy xalqsevar, vatanparvar farzandidir. Umri davomida "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" degan ibora hamrohi bo'lgan. Vatanga bo'lgan muhabbatini uzoq yillik samarali mehnatlarida ko'rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkanishlarni amalga oshirdi. Vatan tuyg'usining sehrli qudrati bilan o'z xalqining e'tibori va e'zozini qozondi. Zamonaviy o'zbek adabiyotini Ozod Sharafiddinov ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmi hamda XXI asr boshlari Said Ahmad ijodining sermahsul davrlari hisoblanadi. Jumladan uning trilogiyasi – "Ufq" umum e'tirofga ko'ra badiiy – estetik saviyasi juda yuqori deya tan olingan romanlar. [1]. Taniqli o'zbek adabiyotshunoslarining deyarli barchasi yozuvchi ijodi haqiga u yoki bu darajada murojaat qilishgan. 1965-yilda "Said Ahmad bundan ko'p yillar muqaddam qo'liga adabiyot tanburini olib chertganda qo'li kelishganini ko'rib, yaxshi sozanda bo'lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini orzu qilgandik. Shu orzu ushalib kelayotibdi", -deb yozgandi o'z davrida Abdulla Qahhor.[2. "Haq so'zning kuchi", 217-bet]. Ozod Sharafiddinov esa "Xo'sh, Said Ahmad san'atini qanday tariflasa bo'ladi? Said Ahmad inson xarakteriga, uning ruhiyat olamiga chuqur kira borishdan, uning milliy ranglarini ilg'ab olishdan, uni ezgulik va yaxshilik, ahillik

va oliyjanoblik sari undashdan, hajviyotni ulug'lashdan tarkib topuvchi san'atdir"-deb yozgan edi. [3. O. Sharafiddinov, "Ijodni anglash baxti", 355-bet]. Biz adibning mustaqillikdan keyin yozilgan "Sarob" hikoyasi tahliliga to'xtalamiz.[4. Said Ahmad. "Kiprikdagi tong", 175-190-betlar) Muammo tadqiqi. Dastavval hikoyani manzur qilgan birinchi jihat – sarlavha haqida. Yaxshi asar – sarlavhadan boshlanadi. Hikoyaga qo'yilgan nom asar g'oyasini, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan, tasvirlagan badiiy voqelikka mos. Ya'ni, asar – real hayotiy voqelikka asoslangan. Bu yerda mubolag'a yoki bo'rttirish deyarli yo'q. Mash'um qatag'on davri tasvirlari sovet davrining voqeligi. Afsonaviy SSSR davlati va'da qilgan varovonlik aslida sarob bo'lib chiqqani hikoya g'oyasi. Ikkinchidan, hikoyaga tanlangan epigraf ham juda o'rinli tanlangan: "Ota qarg'ishi misoli o'q – u oxiratda emas, shu dunyoning o'zida nishonga tegadi" (Buxorolik 100 yil yashagan Usta Amin bobo o'gitlaridan). Ya'ni hikoyada otani norizo qilgan, undan voz kechgan oqqadar o'g'il fojiasi tasvirlangan. Darhaqiqat, otani ulug'lash, uni nafratiga qolish ilohiy kitoblarda qoralanadi. Asli hayotda ham padarni norizo qilishning natijasi xayrli bo'lmasligi haqiqat. Uchinchi jihati – qahramonlarning ismi ham mos ravishda tanlangan. Olimjon ismiga yarasha chuqur bilimga ega, tarixni obdon biladigan, ziyoli-madaniyatli inson. Millat uchun qayg'uradigan, milliy tarixni chuqur biladigan chinakam mutaxassis. "Yoshi yetmishlardan oshgan, umrining o'n besh yildan ortig'ini lagerlarda o'tkazayotgan Olimjon domla..." deya tasvirlanadi ota. O'g'il esa mafkuraviy jihatdan buzilgan inson, otaning fikritafakkuri, e'tiqodiga zid ravishda –ateistik ruhda o'sgan. Hikoyada otani qarg'ishiga qolgan o'g'il – Kimsanboy oxir-oqibat halok bo'ladi. Chunki u e'tiqodlilardan emas edi. To'g'rirog'i – sovetlarning josusi edi. Bundaylarning e'tiqodi, qat'iyati bo'lmaydi. Ozod Sharafiddinov o'zbek adabiyoti uchun poeziya muammolari bilan shug'ullangan, o'zbek she'riyati va uning holati haqida adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi va bu maqolalar o'zbek adabiyoti uchun katta imkoniyat beradi. O'sha davrdagi ilmiy-ijodiy, adabiy-tanqidiy izlanishlari "Zamon. Qalb. Poeziya" (1962) asarida o'z aksini topgan. XX asrning 60-80 yillarida u Cho'lpon hayoti va ijodini targ'ib qilishga intildi. Ozod Sharafiddinov o'zbek adabiyotining Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratdi: "Iste'dod jilolari" (1976), "Adabiy etyudlar" (1968), "Abdulla Qahhor" (1988), "Birinchi mo'jiza" (1979). Ozod Sharafiddinov ijodida o'zga adabiyotlar namoyandalari ijodi haqida yaratilgan "Yalovbardorlar" (1974) adabiy-tanqidiy ocherklar kitobi muhim o'rin egallaydi. 48 Ozod Sharafiddinov XX asrning 60-yillaridan XIX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiy jarayonidagi holatlarni "Talant – xalq mulki" (1979), "Adabiyot – hayot darsligi"

(1981), "Go'zallik izlab" (1985), "Haqiqatga sadoqat" (1988), "Sardaftar sahifalari" (1999), "Prezident" (2003) singari asarlarida aks ettirdi. Ozod Sharafiddinov hayotni ilm va adabiyotga baxshida etgan inson deb aytish mumkin. Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. "Cho'lpon" (1991), "Cho'lponni anglash" (1994) kitoblari, "E'tiqodimni nega o'zgartirdim" (1997) asarlarida munaqqidning estetik prinsiplari aks etgan. Keyingi yillarda Ozod Sharafiddinov o'zbek adiblari, madaniyat-san'at arboblari, olimlar haqida o'nlab maqolalar yozdi. U jahon adabiyotining ko'plab namoyandalari asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. "Ko'lmak suvda quyosh parchasi" (Fransuaza Sagan), "Qadimgi xitoy nasri namunalari", "Monumental targ'ibot" (VI. Boynovich), "Al-ximik" (Paulo Koel'o) singarilar.⁴⁹ Ozod Sharafiddinov ijodining cho'qqisi "Ijodni anglash baxti" (2004) kitobidir. Unda o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o'rni va ilmiy-ma'naviy o'zanlari tadqiq etib berilgan. Taniqli adabiyotshunos, munaqqid professor Ozod Sharafiddinov adabiy bahs hamda munozaralarda o'z fikri, o'z talqini va tanqidiy qarashlari bor takrorlanmas shaxs. Biz ulardan Ona Vatanga sadoqat, adabiyotga cheksiz muhabbat, kasbga nisbatan fidoiylikni o'rganishimiz kerak. Ustoz umri davomida Vatanga bo'lgan muhabbat pokiza, oliyjanob, beminnat bo'lmog'i, har qanday maqtanchoqlikdan, sun'iylikdan xoli bo'lmog'i kerakligini ta'kidladilar. Ozod Sharafiddinov shunday deb aytgan edi: O'zbekning dovrug'ini eshitmagan, O'zbekiston degan jannatmonand yurtning ta'rifidan xabar topmagan bir jon qolmasin. Faqat O'zbekman deb gerdayganimizda, shu go'zal yurtning ravnaqiga qo'shgan jinday hissamiz uchun qaddimizni tik tutib gerdayib qo'yaylik. Yuqoridagi misralarga amal qilishimiz kerak. Ozod Sharafiddinov tabiatida katta olimlarga xos bag'rikenglik va mardlik bor. O'zinio'zi taftish qila olish, hatto chigitday kamchiligi bo'lsa-da, uni ochiq tan olish maqomiga hamma ham ko'tarila bilmaydi. Ayniqsa, dunyoqarashlar evrilishga yuz tutgan, alg'ovdalg'ovli bir pallada "nega men e'tiqodimni o'zgartirdim", deya o'ziga savol berish uchun odam, avvalo, mard bo'lishi kerak. O'z ilmiy maqola yoki kitoblarida yozib qo'yilgan, o'z vaqtida to'g'ri tuyulgan, vaqt o'tishi bilan o'zgargan fikrlar haqiqatini tan olish ham chinakam jo'mard olimga xos fazilatdir. Ozod Sharafiddinov ijodiga nazar tashlangada bunday ibratga munosib o'rinlar yaqqol ko'rinadi. Xususan, "Adabiyot yashasa — millat yashar" maqolasida Cho'lponning "Sho'ro hukumati va sanoe nafisa" maqolasini shoirning "inqilobni ijobiy kutib olganining dalili" sifatida, "daho"ning "ayrim asarlari ta'sirida yozilgan" asar degan taxmini ilgari surganini, yangi manbalar bilan tanishgandan keyin esa fikri o'zgarganini ochiq-oydin yozadi. Holbuki, bu faktlarni birov so'ragan emas, kimdir

buni topib tanqid ham qilgan emas. Mabodo, shunday bo'lgan taqdirda ham Ozod aka eminerkin: "Ey birodari aziz, borib falon maqolamni o'qigin...", deya maslahat bergan bo'lardi. Zotan, o'zining yozgan maqolasidagi past-baland gaplarni olimning o'zidan ko'ra yaxshiroq biladigan odam yo'q. Ozod aka o'zi mansub avlod olimlari, xususan, Hamzayu Fitratlar ijodini o'rganganlar o'z ijod yo'llariga bir nazar tashlashlari foydali bo'lishini bilgani bois bir maqolasida: "Nima ham deyish mumkin – hech kimni majburlab tavba-tazarru qildirib bo'lmaydi, bu ish har kimning vijdoniga havola", degan bag'oyat o'rinli va ibratli fikrni yozgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Саид Аҳмад. "Уфқ". Трилогия. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. – 688 б.
2. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Бешинчи жилд. "Ҳақ сўзнинг кучи". Мақолалар. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1989. – 272 б.
3. Шарафиддинов О. "Ижодни англаш бахти". ШАРҚ НМАК. Т.: 2004. 640 б.
4. Саид Аҳмадю "Киприкда қолган тонг": Қиссалар. Хотиралар. Хикоялар. — Т.: «ШАРҚ», 2 0 0 8. – 206 б.
5. Норматов У. "Етуклик". Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 1982. 368 б.